



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zafaruz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugliy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning.....	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students.....	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir qizi</i>	
Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland	171
<i>Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi</i>	
Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	175
<i>Akbarova Saidaxon Rustamovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli.....	180
<i>Atadjanova Shaira Xalilovna, Umardulov Muxtorali Islomkulovich</i>	

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish.....	185
<i>Azamatova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili.....	189
<i>Babayeva Dilnoz Xaydarovna</i>	
O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS)	192
<i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	
Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili.....	195
<i>Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi</i>	
Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari.....	199
<i>Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi</i>	
Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications.....	203
<i>Egamova Munisa Khakim kizi</i>	
Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish.....	208
<i>Kodirov Akbar Shuxratovich</i>	
Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools	213
<i>Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi</i>	
O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari.....	218
<i>Mirsidikova Aziza Mirvohidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari	221
<i>Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oprovna</i>	
Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	226
<i>Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar.....	229
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish	233
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoxiid qizi</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	237
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish	242
<i>Qurbonova G. M.</i>	
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari	245
<i>Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi</i>	
Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash	248
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	252
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	254
<i>Shaymatova Aziza</i>	
Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar.....	259
<i>Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	265
<i>Suyarova Orzigul Sodiq qizi</i>	



Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik.....	269
To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish	273
Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna	
Ta'limga o'qib tushinishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari.....	276
Umarov Bahrom Norboyevich	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	281
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati.....	286
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar	289
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri	292
Yulchiboyeva Dilfuza Ergasheva	
Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish.....	297
Zakirova Sohila Muxtoraliyevna, Nurmuhamedova Dilshoda Zaynobiddin qizi	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	302
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Ортодонтியда миотерапиya: миогимнастик дентоальвеоляр apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi	305
Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna	
Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков	308
Умрихина Виктория Игоревна	
21st Century Dental Innovation Technologies: An Overview	314
Khojimurodov Burkhon Ravshanovich	
Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах	317
Шарипова Шахноза Шавкат кизи	
Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка.....	321
Эшонкулов Хамрокул Маматкулович	



O'QUVCHILARNI O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodining ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi o'rni hamda uni umumta'lim maktablari ta'lim-tarbiya faoliyatiga integratsiyalash imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, rivoyat, milliy qadriyat, pedagogika.

Abstract: This article discusses the role of folk oral literature in the process of spiritual and moral education and the possibilities of its integration into the educational activities of secondary schools.

Key words: Spiritual education, moral education, folk oral culture, fairy tale, proverb, narrative, national value, pedagogy.

Аннотация: В статье рассматривается роль устного народного творчества в процессе духовно-нравственного воспитания и возможности его интеграции в образовательную деятельность общеобразовательных школ.

Ключевые слова: духовное воспитание, нравственное воспитание, народное устное творчество, сказка, пословица, повествование, национальная ценность, педагогика.

KIRISH

Har qanday davlat o'z istiqbolini sog'lom va barkamol avlod timsolida ko'radi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yoshlarni zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya oldirish, vatanparvar, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini qat'iy shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifasidir.

Shu jihatdan qaralganda, xalq og'zaki ijodi – asrlar davomida sayqal topgan milliy ma'naviyat manbai sifatida – o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda beqiyos tarbiyaviy vositadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PQ–81-son qarorida ta'limda milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali yoshlarning tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish vazifasi belgilab qo'yilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklar, maqollar, dostonlar va afsonalar – ushbu maqsadga erishishda katta salohiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi qadimdan yoshlar ongiga axloqiy me'yorlar, ijtimoiy fazilatlar va milliy g'ururni singdiruvchi qudratli vosita bo'lib kelgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodni ijtimoiy faol, ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika fanida vatanparvarlik tarbiyasi shaxsda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etiladi.

Bu masala A. Avloniy, M. Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat kabi jadid mutafakkirlar asarlarida alohida o'rin tutgan. Jumladan, A. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani millat taqdiri bilan bevosita bog'lab, vatanparvarlikni axloqiy tarbiyaning asosiy mezonı sifatida ko'rsatadi.

Zamonaviy pedagog olimlar – B. Lixachyov, I. Podlasy, V. Sukhomlinskiy ishlarida vatanparvarlik tarbiyasi shaxsning ijtimoiylashuvi, milliy o'zlikni anglash va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan bog'liq pedagogik jarayon sifatida o'rganilgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan N. Jo'rayev, R. Safarova, M. Inoyatov, A. Munavvarov vatanparvarlik tarbiyasini milliy qadriyatlar, tarixiy meros va xalq pedagogikasi bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etganlar.

Xalq og'zaki ijodi (folklor) asrlar davomida xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy qarashlari va tarbiyaviy idealini mujassam etgan muhim manbadir. Pedagogik nuqtai nazardan folklor - bu tabiiy, hayotiy va samarali tarbiya vositasidir.

K. Ushinskiy xalq pedagogikasini bolalar tarbiyasida eng samarali vosita deb baholagan. Uning fikricha, xalq og'zaki ijodi bolalar ruhiyatiga yaqin bo'lib, tarbiyaviy ta'siri kuchlidir.

O'zbek folklorshunos olimlari – H. Zarifov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, M. Afzalov xalq og'zaki ijodini ilmiy jihatdan o'rganib, uning tarbiyaviy, axloqiy va estetik imkoniyatlarini asoslab berganlar.

Pedagog olimlar O. Musurmonova, D. Sharipova, S. Nishonova tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya, xususan, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish masalalari yoritilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodining o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ulkan imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Mazkur manbalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tizimli, ilmiy asosda joriy etish pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi o'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi falsafiy, umumilmiy, xususiy-ilmiy va pedagogik-amaliy yondashuvlar majmuasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Shuningdek, mashhur pedagog va mutafakkirlar (Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy, Fitrat va boshqalar) merosida vatanparvarlik, vatanga muhabbat, tarbiyasi g'oyalari tahlil qilindi.

Pedagogika faniga oid monografiyalar, ilmiy maqolalar, doktorlik dissertatsiyalar, xalq ijodi bo'yicha ilmiy izlanishlar va metodik qo'llanmalar keng qamrovda tahlil qilindi. Turli davr yashab ijod qilgan olimlarining vatanparvarlik tarbiyasi haqidagi fikrlari qiyosiy o'rganilib, umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Muhokamalar va natijalar. Pedagog olimlar merosidagi vatanparvarlik tarbiyasi haqidagi g'oyalar zamonaviy pedagogika rivojlanish tendensiyalari bilan taqqoslandi. Xalq og'zaki ijodidan foydalanish bo'yicha an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi farqlar, o'xshashliklar va rivojlanish istiqbollari aniqladi. Xalq og'zaki ijodidan foydalanilgan dars jarayonlari (adbiyot, tarix va tarbiya) darslari kuzatilib, o'quvchilarning emotsional-ruhiy holati, qiziqishi, vatanparvarlikka oid bo'lgan qarashlaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi. O'zbekiston va jahon pedagogikasida xalq og'zaki ijodi asosida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, mahalliy ta'lim tizimiga mos keluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, xalq ijodi namunalari mujassam bo'lgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik g'oyalari va milliy o'zlikni anglash unsurlari o'quvchilar tarbiyasida nihoyatda katta ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi – dostonlar, rivoyatlar, ertaklar, qo'shiqlar, maqollar va matallar orqali yoshlar ongiga ona Vatanga sadoqat, yurtning qadriga yetish, ajdodlar merosini asrab-avaylash kabi fazilatlar singdiriladi. Bugungi dunyodagi murakkab mafkuraviy vaziyat yoshlarimizda g'oyaviy immunitetni tarbiyalashni faollashtirishni talab qiladi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlari ayni haqiqat: "Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his qiladigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" [32, 486].

Bu davlat rahbarining yoshlarimizda vatanning taqdiriga mas'ullik hissini rivojlantirish va albatta, bizga yot bo'lgan odatlar, qarashlarga nisbatan sobit e'tiqodni yaratish zarurligi haqidagi dolzarb va hayotiy fikrlaridir. Milliy g'oyani yoshlarning qalbi va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli uslub, vosita hamda shakllari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida [3] belgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo'ladi.

Ushbu tadqiqot ishi asosida o'quvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda fuqarolik burchi, shaxsiy mas'uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish vazifa sifatida belgilandi va ushbu vazifani ro'yobga chiqarishning tarixiy materiallar asosida amalga oshirishning metodik asoslari ishlab chiqildi. Endi yangi metodlar asosida maktab yoshidagilarning



vatanparvarlik xarakterini rivojlantirish, ona-yurt taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularni o'z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rishimizni davr, zamon talab qilmoqda.

Hozirgi davr talabi, turli axborot xurujlari sharoitida umumta'lim maktablarida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning noan'anaviy tizimini qo'llash, faollashtirishni taqozo qilmoqda. Vatanparvarlik millatchilik sifatida talqin qilinmasligi, vatanni asrab-avaylash har bir fuqaroning majburiyati ekanligini tushuntirish muhim vazifalardan biridir. Zero, vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg'udir. Frantsuz adibi Volter shunday degan edi: "Vatanga bo'lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'lsa, vatanimni jahondagi boshqa xalqlar yutuqlari bilan shunchalik boyitgim keladi." [71, 3]

Demak, o'zligini anglagan, tarixiy xotirasi butun, mustaqil fikrlaydigan inson o'z vataniga sotqinlik qilmaydi, balki vatan manfaatini hamma narsadan ulug' tutib, uning uchun jon berishga tayyor bo'ladi. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaflı burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi. [29, 371]

Aslida "vatan" – aniq tushuncha. U keng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hududni ifodalaganda u keng ma'noga ega bo'ladi. Ya'ni, tili, e'tiqodi, urf-odatları va milliy xususiyatlari bir bo'lgan avlodlar yashayotgan jug'rofiy muhitni "Vatan" tushunchasi ifodalaydi. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq, shahar nazarda tutilsa, bu Vatanni tor ma'noda tushunishdir. [54, 13]

Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy aytganlaridek: "Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issig' cho'llarini, eskimular shimol taraflar, eng sovuq qor va muzliq yerlarni boshqa yerlardan ziyoda suyarlar... Agar suymasalar edi, havosi yaxshi turonlik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi." [46, 28]

Vatanparvarlik – kishilarning o'z ona vatani, yurtiga muhabbati va uni asrab-avaylashga bo'lgan intilishini anglatadi. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Bu-vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi ularning intellektual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan shaxsni shakllantirishdan iborat. [25]

Jamiyat rivojlangani sari muhim ahamiyat kasb etadigan ma'naviy qadriyatlardan biri – vatanparvarlik tuyg'usidir. Vatanparvarlik ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatları yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqqa bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyatiga ta'sir qilib, ularni mas'uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etadi [130, 212]. Shuning uchun ham har bir davlat o'z fuqarolarida vatanparvarlikni shakllantirishga harakat qiladi va bu orqali ijtimoiy barqarorlikning asoslarini yaratadi.

Tarbiya vositasi – kam o'rganilgan pedagogik kategoriya hisoblanadi. Biroq oxirgi yillarda ushbu muammoni o'rganish dolzarbligi oshganligini kuzatilmoqda. Sababi maktab, o'qish, kitob, o'qituvchi nutqi, ota-ona so'zi bolaga ta'sir etishning, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omili, yagona manbai bo'lmay qoldi.

Tarbiya usullari shaxsga pedagogik ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini o'ziga jamlasa, tarbiya vositalarini mazkur hatti-harakatlarni tashkil etishda qo'llanilishiga qarab to'rtta qismga bo'lishimiz mumkin:

- birinchisi, ma'naviy omillar (kitob, o'g'itlar),
- ikkinchisi moddiy buyumlar (narsalar, ko'rgazmali qurollar, tarixiy obidalar, me'moriy inshootlar, yodgorliklar, xalq amaliy san'ati namunalari),
- uchinchisi amaliy faoliyat (o'yin, mehnat, muloqot) va
- to'rtinchisi hissiy yondashuv (nutq, his-hayajon, quvonish, zavqlanish, g'azablanish).

Tarbiya xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning afzalligi shundan iboratki, yuqoridagi komponentlarning barchasi xalq og'zaki ijodi namunalari ichida mavjud hamda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta samara berishi ehtimoli juda yuqori.

Qadim-qadimdan dono xalqimiz yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qarab, ularda vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni shakllantirishda turli usul va vositalardan foydalanishgan.


Chunki, vatanparvarlik kishilarning ona yurtiga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha bo'lib, umuminsoniy tuyg'u va ma'naviy qadriyatdir. Vatan taqdiriga daxldorlik, o'z yurti tarixi va bugungi kuni bilan faxrlanish – vatanparvarlikning asl belgisi, desak bo'ladi.



Abu Nasr Forobiy jamiyatning ma'naviy xastaligiga nopoklik va mustamlakachilikni sabab qilib ko'rsatgan. ^[45, 29]

O'zbek xalqining tarixi shundan dalolat beradiki, o'tmishdagi qiyinchiliklar milliy g'urur, yurt manfaatini doimo ustun qo'ya olish tufayli barham topgan.

Tadqiqotni olib borish davomida xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash omillarini tizimlashtirdik (1.1-rasmga qarang):



1.1-rasm: O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash omillari

Yangi O'zbekistonni bunyod etish jarayonida o'quvchi-yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash jamiyatimizda olib borilayotgan keng qamrovdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy islohotlar sharoitida olib borilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida joriy qilingan ochiqlik, shaffoflik, axborotdan erkin foydalanish siyosati ommaviy-axborot vositalarining ta'sir doirasini kengaytirdi. Natijada jamiyatning eng faol va qiziquvchan qatlami bo'lgan yoshlar mazmun jihatdan cheklanmagan axborotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ammo, asl qadriyatlarga da'vat qiluvchi ma'lumotlar qatorida hayotimizga buzg'unchi va tajovuzkor g'oyalarni kirib kelishi imkoniyatini keskin oshirdi.

Folklorshunos olimlar M.I. Afzalov, M. Murodov, G. Jahongirov, Z. Husainova, T. Obidovalar tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi janr xususiyatlari, badiiy qiymati, paydo bo'lishi va taraqqiyoti haqidagi qarashlar katta ilmiy ahamiyatga ega ekanini tan olinadi. Insonning barkamolligi va uning ma'naviy qadriyatlari xalq og'zaki ijodi orqali yoshlar ongida milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi yoshlar hayotida alohida o'rin tutadi, yoshlarga samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ma'naviy va axloqiy shakllanishda katta yordam beradi. Maqollar va topishmoqlar yoshlarning ma'naviy kamolotini yuksaltirishda ma'lum darajada hissa qo'shadi. O'quvchi yoshlarga ko'proq axloq va odobga oid ertak va hikoyalar aytib berish hamda ularning mazmunini ochib berish orqali yoshlarda Vatanga muhabbat va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda o'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi pedagogik muammo sifatida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyati, uning shaxs kamolotidagi o'rni hamda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodni ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va milliy o'zlikni anglagan shaxs sifatida tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi – dostonlar, ertaklar, maqol va matallar, rivoyat va afsonalar – asrlar davomida xalqning vatanparvarlik, fidoyilik, yurtga sadoqat haqidagi qarashlarini mujassam etgan bebaho ma'naviy merosdir.

Tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Xususan, folklor namunalari ta'lim jarayoniga tizimli va maqsadli joriy etish o'quvchilarning Vatanga muhabbat, milliy g'urur, tarixiy xotira va fuqarolik mas'uliyati kabi sifatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar majmuasi, metodik tavsiyalar hamda integrativ yondashuvlar Tarbiya va adabiyot darslari samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
3. Zarifov H. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1972.
4. Mirzayev T. O'zbek dostonchiligi. – Toshkent: Fan, 1988.
5. Sarimsoqov B. O'zbek folklori asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
6. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1985.
7. Alpomish. O'zbek xalq dostoni. – Toshkent: Sharq, 1999.
8. Go'ro'g'li. O'zbek xalq dostonlari to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2000.
9. Podlasy I.P. Pedagogika. – Moskva: Vados, 2007.
10. Lixachyov B.T. Pedagogika. – Moskva: Yurayt, 2003.
11. Sukhomlinskiy V.A. Yurakni bolalarga beraman. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
12. Babanskiy Yu.K. Pedagogik tadqiqot metodlari. – Moskva: Pedagogika, 1989.
13. Klarin M.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Moskva: Akademiya, 2010.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.